



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HAY’AT
MAJLISINING BAYONI**

20-may 2025-yil.

2-son

Raislik qiluvchi:

J.A. Qo‘chqorov – O‘zbekiston Respublikasi
Bosh vazirining o‘rinbosari – iqtisodiyot va
moliya vaziri

Qatnashganlar:

Hay’at a’zolari

**“Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va
Hukumatining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijro holati,
davlat rahbari huzurida joriy yilning 17 va 27-mart hamda 9 va 18-aprel
kunlari o‘tkazilgan yig‘ilishlarda berilgan topshiriqlar ijrosini belgilangan
muddatlarda, to‘laqonli va sifatli ta’minlash yuzasidan rahbar-xodimlarning
shaxsiy mas’uliyati va javobgarligini yanada kuchaytirish bilan bog‘liq chora-
tadbirlar to‘g‘risida**

(Qo‘chqorov, Norqulov, Xaydarov, Fazilkarimov, Mustafayev, Raximova, Abidxadjayev, Sadullayev,
Umrzaqov, Fazilov, Muxamedov, Hamroyev, Annaqulov, Qo‘chqorov)

Vazirlik hay’ati qayd etadiki, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-maydagi 07/1-1462-sonli ko‘rsatmasiga muvofiq, “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijro holati, davlat rahbari huzurida joriy yilning 17 va 27-mart hamda 9

va 18-aprel kunlari o'tkazilgan yig'ilishlarda berilgan topshiriqlar ijrosi tahlil qilib chiqilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra vazirlikka jami kelib tushgan topshiriqlar soni **33 ta**. Shundan joriy yilning:

- 17-martdagi **15-sonli** bayonda jami kelib tushgan 15 ta (9 ta asosiy);
- 27-martdagi **16-sonli** bayonda jami kelib tushgan 6 ta (5 ta asosiy);
- 9-apreldagi **17-sonli** bayonda jami kelib tushgan 6 ta (1 ta asosiy);
- 18-apreldagi **18-sonli** bayonda jami kelib tushgan 6 ta (5 ta asosiy);

Jumladan, **may** oyida jami **19 tani** (11 ta asosiy) tashkil etib, shundan, **8 tasining** (5 ta asosiy) **ijrosi ta'minlangan va 10 tasining** (6 ta asosiy) **ijro muddati mavjud** hamda **1 tasining** (hamijrochi) **bajarilishi kechikmoqda**;

Shu bilan birga **14 ta** (9 ta asosiy) topshiriqning bajarilishi **iyun - dekabr** oylariga belgilangan.

Joriy yilning 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi R. Abduqodirov huzurida "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan vazirlik va idoralarga yuklatilgan topshiriqlar ijrosi 2025-yil aprel oyi yakunlari tanqidiy ruhda muhokama qilinib, may oyida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarning 40,0 foizini 10-mayga qadar, 60,0 foizini 15-mayga qadar, 80,0 foizini 20-mayga qadar hamda qolgan barcha topshiriqlar ijrosini 25-mayga qadar 100,0 foiz qilib ta'minlash bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berilgan.

"Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijro holati har haftaning dushanba kuni vazirning birinchi o'rinbosari (I.I. Norqulov) huzurida tanqidiy ruhda muhokama qilinib borilishiga qaramasdan, vazirlik markaziy apparatining ayrim departament direktorlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbar-xodimlarining mas'uliyatsizligi oqibatida ijro intizomiga rioya qilmaslik holatlari uchramoqda.

Vazirlar Mahkamasi xodimlari (U. Hamroyev va A. Annaqulov) so'zga chiqib, topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo'yicha imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, Soliq-bojxona siyosati va daromadlar prognozi departamenti (Sh. Safarov) tomonidan **2 ta**, Davlat rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish va infratuzilma jamg'armalarini boshqarish sohasida budget siyosati departamenti (A. Maxmudxodjayev), Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini shakllantirish va tahlil qilish departamenti (Sh. Nurullayev), Urbanizatsiya jarayonlari, uy-joy qurilishi renovatsiya va ipoteka dasturlarini muvofiqlashtirish boshqarmasi (F. Inamov), Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti (A. Eshchanov), Sanoat siyosatini amalga oshirish departamenti (T. Xoliqov), Davlat xaridlari siyosati departamenti (S. Nazarov) va Davlat hokimiyati,

boshqaruv, sud va prokuratura organlari faoliyatini moliyaviy ta'minlash departamenti (L. Jo'rayev) **1** tadan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosiga to'liq darajada kirishilmaganini takidlab o'tdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-maydagi **07/1-1462-sonli** ko'rsatmasi ijrosini, **"Ijro.gov.uz"** tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan **may** oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar hamda davlat rahbari huzurida joriy yilning 17 va 27-mart hamda 9 va 18-aprel kunlari o'tkazilgan yig'ilishlarda berilgan topshiriqlar ijrosini barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko'rish orqali belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qiladi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-maydagi 07/1-1462-sonli ko'rsatmasi **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining departament direktorlari, boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan **"Ijro.gov.uz"** tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan, **may** oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan topshiriqlar, davlat rahbari huzurida joriy yilning 17 va 27-mart hamda 9 va 18-aprel kunlari o'tkazilgan yig'ilishlarda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar **talab darajasida emas deb topilsin.**

Belgilab qo'yilsinki, "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining topshiriqlarining ijrosini belgilangan muddatlarda to'liq va sifatli bajarilishi, shuningdek, ularning ijro holati to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligiga hamda **"Ijro.gov.uz"** tizimiga o'z vaqtida kiritilishiga vazirning barcha o'rinbosarlari shaxsan mas'ul hisoblansin.

3. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining departament direktorlari, boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga Vazirlar Mahkamasining **"Ijro.gov.uz"** tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan vazirlikka **may** oyida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarning 40,0 foizini 10-mayga qadar, 60,0 foizini 15-mayga qadar, 80,0 foizini 20-mayga qadar hamda qolgan barcha topshiriqlari ijrosini 25-mayga qadar 100,0 foiz qilib

ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar **yetarli emasligi ko'rsatib o'tilsin.**

4. Vazirning birinchi o'rinbosari I.I. Norqulov, vazir o'rinbosarlari A.Y. Xaydarov, U.K. Abidxadjayev, S.A. Sadullayev, O.R. Fazilkarimov, X.B. Mustafayev, I.O'. Umrzakov, G.X. Raximova, vazirlik markaziy apparatining departament direktorlari, boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

bir kun muddatda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-maydagi 07/1-1462-sonli ko'rsatmasi hamda mazkur hay'at qarorini har bir xodimga o'qib eshittirish, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, ijro intizomiga rioya qilinmaganda, shuningdek, topshiriqlarning ijrosi belgilangan muddatlarda ta'minlamagan taqdirda intizomiy jazo chorasi muqarrarligi, vazirlik tomonidan **may** oyiga beriladigan budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan chegirib qolinishi haqida rasman ogohlantirish orqali barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

Davlat rahbari huzurida joriy yilning 17 va 27-mart hamda 9 va 18-aprel kunlari o'tkazilgan yig'ilishlarda berilgan topshiriqlarning muhimligini, ularni amalga oshirish muddatlarining qisqaligini inobatga olgan holda, belgilangan vazifalarni amalga oshirish hamda tegishli vazirliklar, idoralar va barcha darajadagi hokimliklar bilan hamkorlikda ishni tashkil etgan holda hududiy dolzarb masalalarga taalluqli topshiriqlar ijrosini so'zsiz ta'minlash;

"Ijro.gov.uz" tizimida 2025-yil may oyida nazoratda bo'lgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha vazir o'rinbosarlari kesimida 14-aprel kuni ishlab chiqilgan hamda joriy yil 30-aprel kuni qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan, vazirning birinchi o'rinbosari (I.I. Norqulov) tomonidan tasdiqlangan *Kalendar reja*, *"Yo'l xaritasi"* ijrosini ta'minlash;

joriy yilning I yarim yilligida vazirlik tomonidan ishlab chiqilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga, dasturlar, takliflar va chora-tadbirlarga aniqlik kiritib, ularning ro'yxatini shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni kamida **45 kun oldin** boshlab, tegishli vazirlik va idoralar hamda vakolatli organlar bilan kelishilgan hamda Adliya vazirligining xulosasini olgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkil etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

"Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining topshiriqlarini tahlil qilib, ushbu topshiriqlar orasidan mablag' talab qilinadigan va xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog'liq masalalar bo'yicha birinchi navbatda shug'ullanib, ularni to'laqonli va sifatli ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarorining ijrosini tizimli ravishda tashkil etish, **joriy yilning may oyida** nazoratdan chiqarilishi lozim bo'lgan **1-kartotekaga qarashli 265 ta (72 ta asosiy) hamda 2-kartotekaga qarashli 110 ta (43 ta asosiy)** topshiriqlar ijrosi yuzasidan kunlik monitoring o'rnatish hamda topshiriqlarni belgilangan muddatda, to'laqonli va sifatli qilib bajarish;

har bir berilgan ko'rsatma va topshiriqlarga asosan, ijro intizomi masalasiga yuqori mas'uliyat bilan yondashgan holda belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq va sifatli ta'minlash bo'yicha ishlarni to'g'ri rejalashtirish, topshiriq ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablag', resurs va energiya sarflanishi zarurligini inobatga olish vazifalari yuklatilsin.

5. Ijro apparati rahbari o'rinbosari – boshqarma boshlig'i F. Xamdamovga:

Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o'rinbosari I.I. Norqulov tomonidan tasdiqlangan I va II kartotekaga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining topshiriqlari ro'yxati, Kalendar reja hamda vazir o'rinbosarlari kesimidagi "Yo'l xarita"lar ijrosi yuzasidan **kunbay tizimida** tizimli va qat'iy monitoring yuritish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha "Ijro.gov.uz" tizimiga kiritilgan ma'lumotlar va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan topshiriqlarni nazoratdan yechish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda **(har oy yakuni bilan)** tahlil qilib borish, ushbu hujjatlarning ijrosini ta'minlashga e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar *(intizomiy jazo chorasi qo'llash yuzasidan buyruq loyihasi)* taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur bayonning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman

Hay'at raisi



J. Qo'chqorov